



Xorazm viloyati statistika
boshqarmasi


2022- yil yanvar-oktabr oylarida Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



2022- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtini tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2022- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **8 312,9 mlrd so'mga** yetib, uning nominal hajmi **1 533,6 mlrd so'mga** oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **114,0 %ni** tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-oktabr oylarida)





Xorazm viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

| Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-oktabr oylarida) | Hajmi, mlrd so'm | 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da |
|---|---------------------|--|
| Xizmatlar - jami | 8 312,9 | 114,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 425,2 | 123,0 |
| Moliyaviy xizmatlar | 1 756,2 | 124,7 |
| Transport xizmatlari | 1 876,4 | 109,5 |
| <i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i> | <i>1 758,5</i> | <i>106,8</i> |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 201,4 | 113,9 |
| Savdo xizmatlari | 2 105,0 | 106,8 |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 210,8 | 107,0 |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 403,5 | 120,9 |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 171,5 | 112,6 |
| Ijara xizmatlari | 162,0 | 114,9 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 339,4 | 110,4 |
| Shaxsiy xizmatlar | 295,1 | 107,6 |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 134,7 | 113,3 |
| Boshqa xizmatlar | 231,7 | 138,1 |



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

2022- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



Savdo xizmatlari

25,4 %

Boshqa xizmatlar

22,7 %

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

21,2 %

Yashash va ovqatlanish xizmatlari

5,1 %

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

4,6 %

1,9 %

Ijara xizmatlari

4,1 %

1,6 %

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar

3,6 %

Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



Xorazm viloyat statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2022- yil yanvar-oktabr oylarida ularning ulushi **25,3 %**ni tashkil etdi.

Kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **2,3 %ga** yetgan.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-oktabr oylarida savdo xizmatlarining ulushi umumiyligi hajmda **25,9 %**ni tashkil etgan. 2021-yilning shu davrida kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo'lgan – **2,1 %**.

2022- yil yanvar-oktabr oylarida yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (**24,7 %**), boshqa xizmatlar (**38,1 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**23,0 %**), ijara xizmatlari (**14,9 %**) va ta'lim sohasidagi xizmatlarda (**20,9 %**) qayd etildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-oktabr oylarida ijara xizmatlarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan (**123,8 %**), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (**162,3 %**) o'sish kuzatilgan.




Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

2022- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, %da



2022- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **25,3 %**ni tashkil etdi, bu esa **2 105,0 mlrd so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-oktabr oylarida ularning hajmi **1 753,4 mlrd so'mga** yoki umumiylajmi hajmnинг **25,9 %ga** to'g'ri kelgan.

2021- y.yanvar-oktabr

Xizmatlar hajmi
1 753,4 mlrd so'm

O'sish sur'ati
111,6 %

Ulushi
25,9 %

Savdo xizmatlari

2022- y.yanvar-oktabr

Xizmatlar hajmi
2 105,0 mlrd so'm

O'sish sur'ati
106,8 %

Ulushi
25,3 %

2022- yil yanvar-oktabr


Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-oktabr oylarida chakana savdo xizmatlarining ulushi umumiyl savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismini, aniqrog'l, 75,3 %ini tashkil etdi.


Savdo xizmatlari tarkibi

(2022- yil yanvar-oktabr oylarida)

Avtomobillar
va mototsikllar ulgurji
va chakana savdosi,
jumladan, ularni
ta'mirlash xizmatlarini
qo'shgan holda



Ulgurji savdo
xizmatlari
(avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari)



Avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari chakana
savdo bo'yicha
xizmatlar



Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-oktabr oylarida chakana savdo ulushi 75,3 %ga yetgan.

2022- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingen foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar-oktabr oylarida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **1 756,2 mlrd so'mni** tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-oktabr oylarida ularning hajmi **1 383,0 mrd so'mga** teng bo'lgan.

2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi **21,1 %ni** tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-oktabr oylarida ularning ulushi **20,4 %ni** tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **373,4 mlrd so'mga** ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **124,7 %ni** tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-oktabr oylarida ularning o'sish sur'ati **126,5 % ga** yetgan.

2022- yil yanvar-oktabr

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **90,3 %**ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **6,4 %** darajada qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2022- yil yanvar-oktabr oylarida)



Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **92,8 %**ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,9 %**ga to'g'ri kelgan.

2022- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2022- yil yanvar-oktabr oylarida)

**2021- y.
yanvar-oktabr**

341,7
mlrd so'm

120,0 %

5,0 %

**2022- y.
yanvar-oktabr**

425,2
mlrd so'm

123,0 %

5,1 %





Xorazm viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-oktabr



Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **95,3 %**ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2021- y. yanvar-oktabr

2022- y. yanvar-oktabr



Telekommunikatsiya xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-oktabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **95,0 %**ga yetgan.

2022- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**307,2
mlrd so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

**403,5
mlrd so'm**

**2021- y.
yanvar-
oktabr**



**2022- y.
yanvar-
oktabr**

123,8 %

O'sish sur'atlari, % da

120,9 %

2022- yil yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **403,5** mlrd so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi ulushi **4,9 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **120,9 %**ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida xizmatlar hajmi **307,2** mlrd so'mga teng bo'lgan. 2020- yilga nisbatan o'sish **123,8 %** darajasida qayd etilgan.

2022- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlamanagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,
mlrd so'm

151,1

201,4

2021- y.
yanvar-oktabr

2022- y.
yanvar-oktabr



O'sish
sur'ati, % da

108,0

113,9

2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **50,3 mlrd so'mga** ortdi.

2022- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

79,8 %

2022- y. yanvar-
oktabr

20,2 %

17,9 %

82,1 %

2021- y. yanvar-oktabr

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar

2022- yil yanvar-oktabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **79,8 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilda ularning ulushi **82,1 %**ni tashkil etgan.

2022- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi
 bu – sog'lijni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiya markazlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y. yanvar-oktabr

2022- y. yanvar-oktabr

**138,5
mlrd so'm**

**Xizmatlar
hajmi**

**171,5
mlrd so'm**

130,0 %

**O'sish
sur'ati**

112,6 %

2,0 %

**Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi**

2,1 %



2022- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %da (2022- yil yanvar-oktabr oylarida)



2022- yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi eng katta ulush Urganch shahriga tegishli bo'lgan - **35,8 %** (2021- yilda **35,1 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichi Tuproqqa'l'a tumanida kuzatilgan – **2,4 %**.



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

2022- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

| Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-oktabr oylarida) | Hajmi, mlrd so'm | O'sish sur'ati, %da | |
|---|---------------------|---------------------|--------------|
| | | 2022- y. | 2021- y. |
| Xorazm viloyati | 8 312,9 | 114,0 | 119,8 |
| Urganch shahar | 2 976,7 | 116,1 | 117,6 |
| Xiva shahar | 370,0 | 116,7 | 140,5 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Bog'ot | 461,2 | 113,7 | 125,0 |
| Gurlan | 437,2 | 114,5 | 117,5 |
| Qo'shko'pir | 416,4 | 113,6 | 117,2 |
| Urganch | 630,7 | 107,6 | 119,1 |
| Hazorasp | 625,1 | 110,6 | 117,8 |
| Tuproqqa'l'a | 197,1 | 114,6 | 153,9 |
| Xonqa | 564,1 | 114,3 | 115,6 |
| Xiva | 478,0 | 114,9 | 131,8 |
| Shovot | 439,1 | 111,7 | 117,6 |
| Yangiariq | 388,3 | 113,0 | 116,4 |
| Yangibozor | 329,0 | 113,1 | 122,5 |

** Shahar va tuman bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*

2022- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

4 294,7
ming so'm

Hajmning o'sishi

734,0 ming
so'mga

2022- yil yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 294,7 ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan o'sish sur'ati 112,1 %ni tashkil etdi.

O'sish sur'ati

112,1 %

Taqqoslash

uchun:

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 560,7 ming so'mni tashkil etgan.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 62-224-65-16

Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining
rivojlanishi